


2022- yil yanvar-avgust oylari uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-avgust oylariga Xorazm viloyatida jami 2751,2 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2021- yilning yanvar- avgust oylariga nisbatan 100,6 %ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.

Nodavlat mulk



Davlat muki

Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu — oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Joriy yilning yanvar- avgust oylarida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **318,8** mlrd soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar- avgust oylariga nisbatan **104,6 %**ga bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **0,4 %** punktga koʻpaydi va **11,6 %**ni tashkil etdi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, %da



2021- yil
yanvar-avgust


2022- yil
yanvar- avgust

Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Urganch shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **35,2 %** yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **78,2 %**), Hazorasp tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **21,7 %** yoki 2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **10,5 marta %**) va Xonqa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **12,4 %**, yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **66,5 marta %**) hissasiga toʻgʻri

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari


2022- yilning yanvar- avgust oylariga kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 55,6 %i to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar- avgust oylaridagi ko'rsatkichiga nisbatan 0,6 foizga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 98,6 %ni tashkil etgan holda 1 529,0 mlrd so'm miqdorida bajarildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi %da




Ma'lumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Qo'shko'pir tumani (106,0 mlrd so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 108,6 %), Gurlan tumani (92,1 mlrd so'm yoki 108,3 %) va Yangibozor tumaniga (62,5 mlrd so'm yoki 103,1 %) to'g'ri keldi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **160,4** mlrd so'mlik, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2 590,7** mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **5,8 %** va **94,2 %**ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





**2022- yilning yanvar-avgust oylarida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd so'm	ulushi % da	mlrd so'm	ulushi % da
Xorazm viloyati	2751,2	160,4	5,8	2590,7	94,2
Urganch sh.	562,9	37,9	6,7	524,9	93,2
Xiva sh.	191,1	14,2	7,4	176,9	92,6
tumanlar:					
Bog'ot	149,7	0,0	0,0	149,7	100,0
Gurlan	152,0	14,7	9,7	137,3	90,3
Qo'shko'pir	194,7	14,4	7,2	180,3	92,6
Urganch	244,2	0,0	0,0	244,2	100,0
Hazorasp	187,6	13,9	7,4	173,7	95,6
Tuproqqal'a	97,3	16,8	17,3	80,5	82,7
Xonqa	240,3	10,9	4,5	229,4	95,5
Xiva	272,0	0,0	0,0	272,0	100,0
Shovot	148,1	15,5	10,5	132,6	89,5
Yangiariq	147,2	14,5	9,9	132,7	90,1
Yangibozor	164,2	7,7	4,7	156,5	95,3



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2022- yil yanvar- avgust oylari

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 76,3 % yoki **2098,8** mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

76,3 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **273,1** mlrd so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 9,9 %ni tashkil etdi.

9,9 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1004,2** mlrd so'mlik ishlar bajarildi yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 36,5%ni tashkil

36,5


Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **821,5** mlrd so'mni yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 31,1 % ni tashkil etdi.

29,9%



**Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari**

ulushi, %da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2022- yil yanvar- avgust oylarida**

mld s'om

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Xorazm viloyati	2751,2	1 899,6	718,1	133,5
Urganch sh.	562,9	309,9	216,8	36,2
Xiva sh.	191,1	105,3	84,3	1,5
tumanlar:				
Bog'ot	149,7	105,5	38,1	6,1
Gurlan	152,0	107,5	21,1	23,4
Qo'shko'pir	194,7	145,6	46,6	2,5
Urganch	244,2	161,7	55,6	26,8
Hazorasp	187,6	156,7	25,8	5,1
Tuproqqal'a	97,3	67,0	27,6	2,7
Xonqa	240,3	172,3	59,1	8,9
Xiva	272,0	205,8	58,2	8,0
Shovot	148,1	124,3	16,7	7,1
Yangiariq	147,2	125,7	19,9	1,6
Yangibozor	164,2	112,3	48,3	3,6

2022- yilning yanvar- avgust oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd so'm

Urganch sh.

562,9



Xiva
272,0



Urganch
244,2



Xonqa
240,3



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Urganch shahri (562,9 mlrd so'm), Xiva (272,0 mlrd so'm), Urganch (244,2 mlrd so'm), hamda Xonqa tumanlariga (240,3 mlrd so'm) to'g'ri keladi.





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Xorazm viloyati
statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (62)224-65-22